

FARUDIDDIN ATTOR VA HAKIM TERMIZIY QIYOSIY TAHLIL

Abdullayev Abdulhamid Abdurahim o'g'li
TDSHU Mumtoz filologiya fakulteti
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishi
1- kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farudiddin Attor va Hakim Termiziy qiyosiy tahlili hamda Hakim Termiziyning hayot yo'li haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Hakim Termiziy, Balx, Basra, Bag'dod, Kufa, Marv, Nishopur Xatm al-avliyo» va «Ilal ash-shari'a» asarlari.

Hakim Termiziy Termiz shahri qadimdan yirik ilmiy markazlardan biri hisoblanib, ko'plab buyuk allomalarni voyaga yetkazgan. Jahon ehtiromiga sazovor bo'lgan termizlik buyuk siymolardan biri – Abu Iso Termiziy bo'lsa, yana biri Hakim Termiziydir. Hakim Termiziy islom tarixida faoliyat ko'rsatgan sarmahsul allomalardan hisoblanadi. U islom olamida ilm-fan rivojlangan davrda dunyoga kelib, o'zining ko'plab muhim asarlari bilan asrlar osha o'zidan keyingi olimlar ijodiga ta'sir etdi. Allomaning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Hasan ibn Bashir Hakim Termiziy bo'lib, u hijriy uchinchi, milodiy to'qqizinchi asrda yashagan. Turli manbalarda uning tavallud va vafot sanalari haqida xilma-xil ma'lumotlar beriladi. Jumladan, Termizda temuriy shahzodalar tomonidan XV asrning birinchi choragida Hakim Termiziy qabri ustiga o'rnatilgan marmar sag'anada uning 869-yilda vafot etganligi ta'kidlansa, boshqa manbalarda 930-yilda Anbariy degan olim bilan Hakim Termiziy o'rtasida muloqot bo'lgani qayd etiladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, aksar tadqiqotchilar Hakim Termiziyning tavallud sanasi 820-yil va vafoti 932-yil degan xulosaga kelgan. Chunonchi, Fariduddin Attor o'zining «Tazkirat al-avliyo» asarida «Hakim Termiziy 115 yil umr ko'rgan», degan fikri bu xulosani yana bir bor tasdiqlaydi. Zero, Hakim Termiziy uzoq umr ko'rgani haqida bir qancha manbalarda qayd etilgan. Masalan, Zahabiy «Tazkirat al-huffoz» asarida Hakim Termiziy 80 yil, Ibn Hajar «Lison al-mizon» asarida esa 90 yil umr ko'rganini zikr qilgan. Allomaning hayot yo'li haqida tizimli ma'lumotlar manbalarda uchramaydi. Uning ota-onasi haqidagi ba'zi xabarlardan ma'lum bo'lishicha, uning otasi Ali ibn Hasan o'z davrida hadis ilmining ko'zga ko'ringan olimlardan biri sifatida mashhur bo'lgan. Arab tarixchisi Xatib Bag'dodiy o'zining mashhur «Tarixi Bag'dod» nomli asarida yozishicha, u musulmon olamining eng yirik markazlaridan sanalgan Bag'dod shahrida bo'lib, o'sha davrning mashhur olimu fuzalolari bilan hadis ilmining turli masalalari bo'yicha qizg'in bahs va munozaralarda ishtirok etgan. Hakim Termiziy o'zining avtobiografik risolasi «Buduvv ash-sha'n Abi Abdulloh» va «ar-Radd ala-l-muattila»

kabi asarlarida yozishicha, uning onasi va bobosi ham o‘z davrida hadis ilmining yetuk bilimdonlaridan bo‘lgan. Bu ma‘lumotlardan shunday xulosa qilish mumkinki, Hakim Termiziy ilm-ma‘rifat yuksak qadrlanadigan, ziyoli bir xonadonda dunyoga kelib, mana shu ilmiy-ma‘naviy muhitda o‘tib-ulg‘aygan. Hakim Termiziy 25 yoshiga qadar Movarounnahr shaharlarida tafsir, hadis va fiqh ilmlarini katta qiziqish bilan o‘rganadi. Taxminan 27 yoshlarida muborak haj safariga, Makkaga yo‘l oladi. Uning bu muqaddas shahar tomon safari Basra, Bag‘dod orqali bo‘lib, safar davomida hadislar to‘playdi. Allomaning dunyoqarashi shakllanishida ona shahri Termiz bilan bir qatorda Makka, Balx, Basra, Bag‘dod, Kufa, Marv, Nishopur shaharlaridagi mavjud dunyoviy va diniy bilimlar ham muhim ahamiyat kasb etgan. Yuqorida zikr qilganimizdek, Hakim Termiziyda 27–28 yoshlarida Makkani ziyorat qilish istagi tug‘iladi. Yo‘lda u Iroqda to‘xtab o‘tadi. Iroqning qator shaharlarida, jumladan, Bag‘dod, Kufa, Basra va boshqa shaharlarida bir necha kun to‘xtab, muhaddislar bilan muloqotda bo‘ladi, ular bilan ilmiy-ijodiy munozaralarda ishtirok etadi va sha‘bon oyida Makkaga o‘tib ketadi. U to‘rt oy, toki haj mavsumi boshlangunga qadar, bu muqaddas shaharning fayzu barakotidan bahramand bo‘ladi. Mana shu davr, aytish kerakki, Hakim Termiziy hayot tarzida, uning dunyoqarashi va odamlar bilan o‘zaro munosabatida batamom burilish nuqtasi rolini o‘ynaydi va uning qalbida o‘chmas iz qoldiradi. Haj ziyoratidan qaytib, Termiziy yurt kezib, o‘ziga rahnamolik qiluvchi kishi (pir-murshid)ni izlaydi. Ammo uni ma‘naviy jihatdan ruhlantiruvchi murshidni topmagani sabab, nima qilishni bilmasdi. Nihoyat, Antokiyning «Qalblar davosi» kitobini mutolaa qilgandan so‘ng nafs riyozati bobida nimadir topgandek bo‘ladi. Umrining ushbu pallasida Hakim Termiziyning butun hayotida burilish nuqtasi sodir bo‘lgan. U atrofidagi hayotga endi boshqacha ko‘z bilan qaray boshlaydi. Unda xilvat joylarda bo‘lish, odamlardan xoli qolish, uzlatda bo‘lish kabi his-tuyg‘ular paydo bo‘ladi. U qabriston va shahar atrofidagi vayronalarda aylanib yuradi. Ana shu davrda u o‘ziga ruhan madad beradigan va tariqati yo‘liga boshlaydigan pir murshid izlaydi. Ammo bunga muyassar bo‘la olmaydi. «Buduvv ash-sha‘n» asaridan ma‘lum bo‘ladiki, Hakim Termiziy uchun mana shunday tushkunlik davrida, uning qo‘liga Ahmad ibn Osim Antokiyning kitobi tushib qoladi. Hakim Termiziyning suluk yo‘liga eltuvchi, uning ko‘ngli izlab, ruhi taskin topgan va barcha savollariga javob olgan ana shu kitob unga ustozlik vazifasini o‘tadi. Hakim Termiziy yashagan davr siyosiy jihatdan notinch bo‘lgan. Doimiy va to‘xtovsiz urushlar, hokimiyat uchun kurashlar yurtda notinchlik va beqarorlik muhitini paydo qilgan. Bu muhit Hakim Termiziyning «Buduvv ash-sha‘n» avtobiografik asarida ham o‘z aksini topgan. Jumladan, muallif shunday yozadi: «Yurtda fitna va g‘alayon ko‘tarildi. Menga azob bergan, menga bo‘hton qilganlar yurtdan qochib ketdilar. Balolarga giriftor bo‘ldilar, g‘urbatda qoldilar, yurt ulardan xoli bo‘ldi». Ma‘lumki, Hakim Termiziy o‘z qarashlari noto‘g‘ri tushunilishi oqibatida unga qarshi bo‘htonlar uyushtiriladi. Shunda uni Balx voliysi o‘z huzuriga chaqiradi. Voliy Hakim Termiziy

bilan suhbatlashib, uning to‘g‘ri yo‘lda ekanini, faqat ma‘lum bir vaqt odamlar orasida «Allohga muhabbat» haqidagi fikrlarni tarqatmaslikni tayinlab, uni qo‘yib yuboradi. «Buduvv ash-sha‘n» asarida, shuningdek, ba‘zi tarojim (biografik) kitoblarda qayd etilganidek, alloma o‘z yashagan muhitida turli tazyiq va to‘siqlarga duchor bo‘lgan. Ushbu tazyiqlar olimning muayyan asarlari va qarashlariga qarshi qaratilgan bo‘lgan. Hakim Termiziyning «Xatm al-avliyo» va «Ilal ash-shari‘a» asarlari noto‘g‘ri tushunilishi oqibatida, olim ma‘lum muddatga Termizdan chiqarib yuborilgan. Hakim Termiziy esa o‘z asarlarining noto‘g‘ri tushunilishi oqibatida «valiylarni nabiylerden ustun qo‘yish»dek juda katta noo‘rin ayblov bilan rasmiy doiralarning qarshiligiga uchragan. Ammo fursat o‘tib, uni nohaq ayblaganlarning o‘zlari tazyiqlarga uchrab, alloma oqlanadi, uning begunoh ekani tasdiqlanib, Termizda yana ilmiy faoliyatini davom ettiradi. Hakim Termiziy o‘sha davrda mintaqada tarqalgan karromiylar, solimiylar, jahmiylar va murji‘iylar kabi adashgan oqim va yo‘nalishlar ta‘limotlariga o‘z asarlarida raddiyalar bergan, o‘zining tanqidiy fikrlarini bildirib o‘tgan. Garchi, alloma ularning nomini zikr qilib to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarshi chiqmasa-da, lekin ularning asosiy g‘oyalariga qarshi ekanini namoyon qilgan. Hakim Termiziy zamonasidagi johil mutasavviflarni adashgan firqalar bilan bir qatorda tanqid qiladi. Shuningdek, sulukda yurib, lekin hali yuqori manzillarga erishmasdan nafsiga berilib ketib, o‘zini «shayx», «avliyo» deb e‘lon qilgan, natijada o‘z nuqsonlari bilan orqasidan ergashgan odamlarni ham to‘g‘ri yo‘ldan adashtirgan soxta avliyo va shayxlarnifosh qilish uchun 157 savol tuzib chiqadi. Ushbu savollarga javob bera olmaganlarni, hali kerakli daraja va maqom-manzillarga yetishmagan kishilar sifatida baholaydi.

Hakim Termiziy tasavvufda hakim bo‘lgan. Uning tasavvufdagi tutgan bu o‘rni boshqa zohid va sufiylardan ko‘ra ko‘proq masalalarning ichki mohiyatiga kirib borish hamda har bir ishda ilohiy hikmat izlashi bilan ajralib turadi. Hakim Termiziyning 200 dan oshiq risolalari muayyan masala bo‘yicha so‘ralgan savollarga javob tariqasida yozilgani, mintaqaning ba‘zi mashhur sufiy shayxlari ham undan maslahat so‘rab yozgan maktublari allomaning o‘zi yashagan muhitida juda e‘tiborli shaxs bo‘lganini tasdiqlaydi. Hakim Termiziy o‘zi yashagan muhitidagi zohid va sufiylar orasida hakam yoki maslahat uchun murojaat etiladigan ustoz mavqeida edi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Hozirgi mavjud ma‘lumotlarga ko‘ra, Hakim Termiziyning bizgacha yetib kelgan 60 ga yaqin asarining yarmi dan ko‘pi nashr qilingan, qolganlari esa jahon qo‘lyozma fondlarida saqlanmoqda. Allomaning ijod maydoni juda serqirra bo‘lib, u islom ilmlarining ko‘plab jabhalarini qamrab olgan. Hakim Termiziyning boy ilmiy-ma‘naviy merosini shartli ravishda 7 yo‘nalish: Qur‘on ilmlari, hadis, fiqh, kalom, islom falsafasi, tasavvuf tarixi, tasavufiy qarashlar bo‘yicha tasnif qilish mumkin. Lekin bu taqsimot uning asarlari yo‘nalishlarini to‘liq aks ettiradi, deb ayta olmaymiz. Chunki odatda allomaning asarlarida ushbu yo‘nalishlar qorishib ketgan holatlar ham uchraydi. Ba‘zan uning bir asarida bir necha yo‘nalishlar, hattoki, mazkur yetti

yo‘nalishning barchasini ham ko‘rishimiz mumkin. Hakim Termiziyning merosi keyingi davr ulamolari ijodiga salmoqli ta‘sir ko‘rsatgan. Jumladan, Imom G‘azzoliy, Abu Abdulloh Qurtubiy, Ibn Hajar Asqaloniy, Abu Mahmud Abdulloh Hanafiy, Muhammad Shamsulhaqq Obodiy, Ibn Kasir, Abdulg‘ani Suyutiy kabi bir qancha taniqli olimlar Hakim Termiziy ilmiy merosidan samarali foydalanganlar. Hakim Termiziyning mukammal ilmi va beqiyos salohiyatiga ko‘pchilik allomalar yuksak baho berganlar. Abdurahmon Sulamiy, Isfahoniy, Hujviriy, Abdulloh Ansoriy, Fariduddin Attor va boshqa biograf olimlar Hakim Termiziyning oliy darajadagi ehtirom bilan tilga olganlar. Jumladan, buyuk mutafakkirlar Abdurahmon Jomiy «Nafahot al-uns» asarida, Alisher Navoiy «Nasoyim al-muhabbat» asarida uni eng ulug‘ shayxlar qatorida zikr qilgan va mutasavviflarning ikkinchi bo‘g‘iniga kiritgan. Xususan, Alisher Navoiy hazratlari Hakim Termiziy to‘g‘risida quyidagi ma‘lumotlarni keltirgan: «Muhammad ibn Ali Hakim Termiziy – ikkinchi tabaqadandur. Kuniyasi Abu Abdullohdur. Mashoyixi kibordandur va Abu Turob Naxshabiy va Ahmad Hazravayh va Ibn Jallo bila suhbat tutubdur va ko‘p hadisi bor va zohir karomati va tasonifi (yozgan asarlar) bor. Ul jumladin «Xatm al-viloya» kitobi va «Nahj» kitobi, «Navodir al-usul» va bundan o‘zga ham kitoblari bor va zohir ulumida ham kutubi bor va bir tafsir («Qur‘on tafsiri») ham ibtido qilg‘ondir. Ammo itmomig‘a (oxiriga) umri vafo qilmaydur...». Xoja Bahouddin Naqshband hazratlari ham Hakim Termiziy haqlarida: «Aziz avliyolarning peshvosi Xoja Muhammad ibn Ali Hakim Termiziyning ruhoniyyotiga tavajjuh ham tushganda, har safar menga ta‘rif va tavsifdan xoli tasavvuf namoyon bo‘ladi», deb, uning ruhoniyy olamidagi yuksak martaba va maqomlarini alohida lutf bilan ta‘rif etgan ekan.

O‘rta asrlarda ham, keyingi davrlarda ham Hakim Termiziyning ko‘plab olimu fuzalolar o‘z asarlarida chuqur ehtirom bilan tilga olganlar. Uning ilmiy-ma‘naviy merosining beqiyos qadr-qimmatini haqida qator manbalarda zikr etilgan. Termiziyning ijod bilan shug‘ullangan tadqiqotchilar ham uning dahosiga lol qolib, yuksak baho berganlar. Misol uchun, mashhur fransuz sharqshunosi L.Massinon allomani «tasavvufning ilk darg‘alaridan edi» deb ta‘riflagan. Hakim Termiziy qomusiy olim sifatida tafsir, fiqh, hadis, ilohiyot, til va tasavvuf ilmlari sohasida samarali ijod qilgan. Uning serqirra asarlari esa IX–X asrlarda Movarounnahr va Xuroson mintaqasida dolzarb bo‘lgan ilmiy mavzularni o‘zida mujassam etgan muhim manbalardir.

Xulosa:

Mustaqillik yillarida allomaning ilmiy merosi uning ona yurtida keng miqyosda o‘rganilishiga imkoniyatlar yaratildi. Uning hayoti va faoliyati haqida dastlab professor U.Uvatov tomonidan risolalar yozildi, A.Shoshiy va dotsent I.Usmonov asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qildilar, Hakim Termiziy merosi va ilmiy faoliyati yuzasidan dissertatsiyalar yoqlandi, rejissyor K.Hamroyev tomonidan professor U.Uvatov bilan hamkorlikda filmlar ishlandi. Bular bilan bir qatorda ko‘plab boshqa

olim va tadqiqotchilar allomaning bebaho asarlari, mukammal ta’limoti, hikmatli merosi ustida qator izlanishlar olib borib, ochilmagan yangi qirralarini kashf qilmoqdalar. Hozirda Amudaryo bo‘yida barpo etilgan allomaning mahobatli maqbarasi ta’mirdan chiqarilib, obod ziyoratgohga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. - Toshkent : "Sharq" nashriyoti, 2004 - 208 bet.
2. Uvatov U., Al-Hakim at-Termiziy (hayoti va merosi), T., 2001; Termiz tazkirasi [tuzuvchi Mirzo Kenjabek], T., 2001.
3. www.liblary.uz
4. Al-Hakim at-Termiziy va nazariyatuhu fil-viloya, 31-32-betlar